



Adliya xabari

O'zboshimchalik bilan egallab olingen yer va undagi ko'chmas mulkka mulk huquqini e'tirof etishga oid Qonun 8 noyabrdan kuchga kiradi

Unga ko'ra, fuqarolar quyidagi ko'chmas mulklarni o'z nomiga (ijara va mulk huquqi asosida) qonuniy o'tkazib olishi mumkin:

□ 2018 yil 1 may kunigacha yakka tartibdagi uy-joy qurib o'zboshimchalik bilan egallagan yer hamda undagi bino va inshootlar;

□ 2018 yil 1 may kunigacha fuqarolar va tashkilotlar tomonidan hujjatda ko'rsatilgan maydonдан ortiqcha egallangan yer hamda undagi bino va inshootlar;

□ "bir martalik aktsiya" doirasida huquqlarni e'tirof etish oxiriga yetmagan yer hamda undagi bino va inshootlar;

□ 2021 yil 8 iyunga (hokimlarning vakolati bekor qilinguniga) qadar tuman (shahar) hokimlari qarqri bilan ajratilgan, lekin viloyat hokimi yoki xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanmagan yer;

□ bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylar hamda ular egallagan yer;

□ kichik sanoat zonalari hududiga 2020 yil 9 martgacha joylashtirilgan tadbirkorlarning yeri;

□ davlat orderi bilan xususiyashtirilgan binolar va uylar egallagan yer;

□ hokim qarori bilan mulk huquqi e'tirof etilgan binolar va uylar egallagan yer uchastkasi.

Abdumannon Umriddinov - So'x tumani adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi sho''ba mudiri

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-07 15:18:45